QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# 1 KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2023-yil 1-sentabr holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24 957 tani tashkil etib, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 21 125 tani tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

625
13,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 217
25,9 %

Sanoat

189
4,0 %

Qurilish

1 420
30,2 %

Savdo

134
2,9 %

Tashish va saqlash

238
5,1 %

Yashash va ovqatlanish

155
3,3 %


Axborot va aloqa

65
1,4 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

653
13,9 %

Boshqa turlar

2023- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 4 696 soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 942 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023- yil yanvar-avgust oylarida mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 4 017 tani, oilaviy korxonalar 401 tani tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 971 | 15,2 % | Kegayli | 196 | 22,7 % |
| Beruniy | 505 | 23,7 % | Qorao‘zak | 160 | 21,3 % |
| Qo‘ng‘irot | 392 | 24,6 % | Qonliko‘l | 139 | 21,0 % |
| To‘rtko‘l | 388 | 15,5 % | Nukus | 132 | 14,3 % |
| Ellikqal’a | 387 | 22,5 % | Mo‘ynoq | 124 | 18,6 % |
| Amudaryo | 345 | 17,0 % | Taxtako‘pir | 120 | 24,8 % |
| Chimboy | 240 | 21,6 % | Taxiatosh | 103 | 13,8 % |
| Xo‘jayli | 217 | 16,7 % | Bo‘zotov | 77 | 18,3 % |
| Shumanay | 200 | 31,4 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

| Faoliyat turi | Soni | Jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3 144 | 12,6 % |
| Sanoat | 3 481 | 13,9 % |
| Qurilish | 1 866 | 7,5 % |
| Savdo | 7 272 | 29,1 % |
| Tashish va saqlash | 928 | 3,7 % |
| Yashash va ovqatlanish | 1 299 | 5,2 % |
| Axborot va aloqa | 437 | 1,8 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 486 | 2,0 % |
| Boshqa turlar | 6 044 | 24,2 % |












2023- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga (17 864 ta) nisbatan 7 093 taga ko‘payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 4 024 tadan 7 272 taga (o‘sish 3 248 ta), sanoat – 2 201 tadan 3 481 taga (o‘sish 1 280 ta) , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 990 tadan 3 144 taga (o‘sish 1 154 ta).

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 6 407 | Kegayli | 864 |
| To‘rtko‘l | 2 508 | Qorao‘zak | 750 |
| Beruniy | 2 129 | Taxiatosh | 748 |
| Amudaryo | 2 031 | Mo‘ynoq | 665 |
| Ellikqal’a | 1 722 | Qonliko‘l | 661 |
| Qo‘ng‘irot | 1 595 | Shumanay | 637 |
| Xo‘jayli | 1 303 | Taxtako‘pir | 483 |
| Chimboy | 1 112 | Bo‘zotov | 420 |
| Nukus | 922 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

624
13,7 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 217
26,8 %

Sanoat

188
4,1 %

Qurilish

1 419
31,2 %

Savdo

133
2,9 %

Tashish va saqlash

237
5,2 %

Yashash va ovqatlanish

155
3,4 %


Axborot va aloqa

64
1,4 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

515
11,3 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish 87 tadan 237 taga (o‘sish 150 taga), tashish va saqlash – 98 tadan 133 taga (o‘sish 35 taga) ko‘paydi.

## Tumanlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Nukus sh. | 916 | 16,8 % |
| Beruniy | 489 | 26,8 % |
| Qo‘ng‘irot | 388 | 28,8 % |
| Ellikqal’a | 378 | 25,9 % |
| To‘rtko‘l | 369 | 16,5 % |
| Amudaryo | 342 | 19,7 % |
| Chimboy | 234 | 25,9 % |
| Xo‘jayli | 212 | 18,9 % |
| Shumanay | 199 | 38,5 % |
| Kegayli | 194 | 27,1 % |
| Qorao‘zak | 159 | 25,6 % |
| Qonliko‘l | 136 | 25,3 % |
| Nukus | 125 | 16,1 % |
| Mo‘ynoq | 122 | 21,9 % |
| Taxtako‘pir | 116 | 32,0 % |
| Taxiatosh | 99 | 16,2 % |
| Bo‘zotov | 74 | 21,2 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

3 081
14,6 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

3 450
16,3 %

Sanoat

1 838
8,7 %

Qurilish

7 266
34,4 %

Savdo

921
4,4 %

Tashish va saqlash

1 292
6,1 %

Yashash va ovqatlanish

401
1,9 %


Axborot va aloqa

407
1,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

2 469
11,7 %

Boshqa turlar

Tumanlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,8 foiz), To‘rtko‘l (10,6 foiz), Beruniy (8,6 foiz), Amudaryo (8,2 foiz)va Ellikqal’a (6,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 5 450 | Kegayli | 715 |
| To‘rtko‘l | 2 237 | Qorao‘zak | 620 |
| Beruniy | 1 826 | Taxiatosh | 611 |
| Amudaryo | 1 735 | Mo‘ynoq | 558 |
| Ellikqal’a | 1 460 | Qonliko‘l | 537 |
| Qo‘ng‘irot | 1 345 | Shumanay | 517 |
| Xo‘jayli | 1 119 | Taxtako‘pir | 363 |
| Chimboy | 905 | Bo‘zotov | 349 |
| Nukus | 778 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

### Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Amudaryo | 349 |
| To‘rtko‘l | 324 |
| Nukus | 320 |
| Beruniy | 304 |
| Kegeyli | 203 |
| Qo‘ng‘irot | 185 |
| Ellikqal’a | 173 |
| Qonliko‘l | 164 |
| Chimboy | 164 |
| Xo‘jayli | 150 |
| Nukus sh. | 139 |
| Mo‘ynoq | 131 |
| Qorao‘zak | 129 |
| Bo‘zotov | 113 |
| Shumanay | 108 |
| Taxiatosh | 98 |
| Taxtako‘pir | 90 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 633 |
| Amudaryo | 339 |
| To‘rtko‘l | 331 |
| Ellikqal’a | 330 |
| Beruniy | 304 |
| Qo‘ng‘irot | 264 |
| Xo‘jayli | 200 |
| Qorao‘zak | 159 |
| Chimboy | 146 |
| Mo‘ynoq | 131 |
| Taxiatosh | 120 |
| Kegeyli | 116 |
| Taxtako‘pir | 95 |
| Shumanay | 91 |
| Nukus | 91 |
| Qonliko‘l | 72 |
| Bo‘zotov | 59 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 106,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish 101,9 foiz); 4,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 92,0 foiz); 2,3 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 112,7 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 81,8 foiz) tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 831 |
| To‘rtko‘l | 145 |
| Ellikqal’a | 105 |
| Xo‘jayli | 101 |
| Qo‘ng‘irot | 96 |
| Beruniy | 88 |
| Nukus | 86 |
| Amudaryo | 74 |
| Taxiatosh | 53 |
| Kegeyli | 52 |
| Qorao‘zak | 48 |
| Chimboy | 46 |
| Qonliko‘l | 36 |
| Mo‘ynoq | 35 |
| Shumanay | 31 |
| Bo‘zotov | 20 |
| Taxtako‘pir | 19 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 56,0 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 71,6 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,7 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,3 foiz ulushni va 75,0 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

**311** Fuqarolik obyektlarini qurish

**510** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**1 045** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 2 050 |
| To‘rtko‘l | 845 |
| Beruniy | 678 |
| Amudaryo | 604 |
| Ellikqal’a | 512 |
| Qo‘ng‘irot | 410 |
| Xo‘jayli | 404 |
| Chimboy | 369 |
| Taxiatosh | 234 |
| Shumanay | 204 |
| Kegeyli | 191 |
| Qonliko‘l | 164 |
| Nukus | 164 |
| Qorao‘zak | 152 |
| Mo‘ynoq | 148 |
| Taxtako‘pir | 88 |
| Bo‘zotov | 55 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 266 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,4 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 98,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 114,8 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 121,1 foizga oshgan.

**735**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**1 778**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**4 759**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 378 |
| Amudaryo | 151 |
| To‘rtko‘l | 129 |
| Qo‘ng‘irot | 115 |
| Ellikqal’a | 104 |
| Beruniy | 101 |
| Xo‘jayli | 58 |
| Chimboy | 47 |
| Kegeyli | 40 |
| Mo‘ynoq | 30 |
| Qorao‘zak | 29 |
| Qonliko‘l | 27 |
| Taxiatosh | 25 |
| Shumanay | 22 |
| Taxtako‘pir | 20 |
| Bo‘zotov | 12 |
| Nukus | 11 |




2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 117,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.

**94** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 205** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 181 |
| Qo‘ng‘irot | 38 |
| Chimboy | 28 |
| Beruniy | 27 |
| Ellikqal’a | 24 |
| Amudaryo | 20 |
| Xo‘jayli | 20 |
| To‘rtko‘l | 19 |
| Kegeyli | 14 |
| Nukus | 14 |
| Taxiatosh | 12 |
| Mo‘ynoq | 10 |
| Shumanay | 9 |
| Qorao‘zak | 7 |
| Qonliko‘l | 7 |
| Taxtako‘pir | 4 |
| Bo‘zotov | 3 |




2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,7 foizini tashkil etdi;

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 24,7 foizi ulushni tashkil etdi;

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 52,6 foizini tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 183 |
| Amudaryo | 42 |
| Beruniy | 38 |
| Qo‘ng‘irot | 36 |
| Xo‘jayli | 34 |
| Ellikqal’a | 34 |
| To‘rtko‘l | 33 |
| Chimboy | 18 |
| Kegeyli | 15 |
| Taxiatosh | 15 |
| Nukus | 12 |
| Taxtako‘pir | 8 |
| Shumanay | 5 |
| Qorao‘zak | 5 |
| Qonliko‘l | 4 |
| Mo‘ynoq | 3 |
| Bo‘zotov | 1 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning – 486 ta yoki 2,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,2 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 4,1 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 71,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 80,0 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 313 |
| To‘rtko‘l | 143 |
| Qo‘ng‘irot | 69 |
| Ellikqal’a | 63 |
| Amudaryo | 53 |
| Beruniy | 51 |
| Xo‘jayli | 40 |
| Chimboy | 39 |
| Mo‘ynoq | 32 |
| Kegeyli | 27 |
| Qorao‘zak | 27 |
| Nukus | 22 |
| Taxiatosh | 18 |
| Taxtako‘pir | 10 |
| Bo‘zotov | 9 |
| Shumanay | 8 |
| Qonliko‘l | 4 |




2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 83,8 foiz ulushni tashkil etdi;

Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining 14,8 foiz ulushni tashkil etdi;

Pochta va kuryerlik yo‘nalishi 1,2 foiz ulushni tashkil etdi;

Havo transporti yo‘nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar 0,1 foiz ulushni tashkil etdi;

Suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar 0,1 foiz ulushni tashkil etdi.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 11 | 137 | 778 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| | Tadbirkorlik subyektlari soni | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| mas’uliyati cheklangan jamiyat | 16 340 | 77,1 % |
| Xususiy korxona | 2 374 | 11,2 % |
| Oilaviy korxona | 2 077 | 9,8 % |
| Aksiyadorlik jamiyat | 20 | 0,1 % |
| Boshqalar | 393 | 1,8 % |

**Tashkiliy-huquqiy shakl** deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi











| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 575 | 14,3 % |
| Sanoat | 989 | 24,6 % |
| Qurilish | 182 | 4,5 % |
| Savdo | 1 276 | 31,8 % |
| Tashish va saqlash | 126 | 3,1 % |
| Yashash va ovqatlanish | 195 | 4,9 % |
| Axborot va aloqa | 143 | 3,6 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 53 | 1,3 % |
| Boshqa turlar | 478 | 11,9 % |

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 821 | Kegeyli | 189 |
| Beruniy | 462 | Qorao‘zak | 149 |
| Qo‘ng‘irot | 341 | Mo‘ynoq | 119 |
| Amudaryo | 318 | Nukus | 116 |
| Ellikqal’a | 292 | Qonliko‘l | 109 |
| To‘rtko‘l | 254 | Taxiatosh | 86 |
| Chimboy | 226 | Taxtako‘pir | 85 |
| Xo‘jayli | 193 | Bo‘zotov | 67 |
| Shumanay | 190 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

| Soni | Ulushi | Faoliyat turi |
|---|---|---|
| 2 607 | 16,0 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 2 483 | 15,2 % | Sanoat |
| 1 692 | 10,4 % | Qurilish |
| 5 408 | 33,1 % | Savdo |
| 853 | 5,2 % | Tashish va saqlash |
| 737 | 4,5 % | Yashash va ovqatlanish |
| 328 | 2,0 % | Axborot va aloqa |
| 292 | 1,8 % | Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish |
| 1 940 | 11,8 % | Boshqa turlar |












2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 21,2 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 16,3 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 4 570 | Kegeyli | 624 |
| To‘rtko‘l | 1 560 | Qorao‘zak | 528 |
| Beruniy | 1 412 | Mo‘ynoq | 475 |
| Amudaryo | 1 296 | Taxiatosh | 400 |
| Qo‘ng‘irot | 1 014 | Shumanay | 352 |
| Xo‘jayli | 905 | Bo‘zotov | 315 |
| Ellikqal’a | 897 | Qonliko‘l | 314 |
| Chimboy | 779 | Taxtako‘pir | 227 |
| Nukus | 672 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi




**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,4 foizni tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 534 | Chimboy | 88 |
| Ellikqal’a | 348 | Qonliko‘l | 81 |
| Beruniy | 217 | Taxtako‘pir | 60 |
| To‘rtko‘l | 211 | Kegeyli | 53 |
| Qo‘ng‘irot | 197 | Qorao‘zak | 46 |
| Shumanay | 142 | Mo‘ynoq | 42 |
| Taxiatosh | 112 | Nukus | 28 |
| Amudaryo | 110 | Bo‘zotov | 11 |
| Xo‘jayli | 94 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

116 — 5,6 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

539 — 25,9 %



Sanoat

20 — 1,0 %



Qurilish

809 — 38,9 %



Savdo

9 — 0,4 %



Tashish va saqlash

336 — 16,2 %



Yashash va ovqatlanish

18 — 0,9 %




Axborot va aloqa

47 — 2,3 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

183 — 8,8 %



Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 1 128 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| To‘rtko‘l | 441 | Taxtako‘pir | 68 |
| Nukus sh. | 310 | Nukus | 61 |
| Amudaryo | 308 | Mo‘ynoq | 28 |
| Ellikqal’a | 195 | Qorao‘zak | 27 |
| Beruniy | 162 | Kegeyli | 23 |
| Qo‘ng‘irot | 113 | Chimboy | 21 |
| Qonliko‘l | 107 | Shumanay | 21 |
| Xo‘jayli | 101 | Bo‘zotov | 9 |
| Taxiatosh | 82 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

23
14,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

84
54,2 %

Sanoat

4
2,6 %

Qurilish

20
12,9 %

Savdo

3
1,9 %

Tashish va saqlash

3
1,9 %

Yashash va ovqatlanish

1
0,7 %


Axborot va aloqa

3
1,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

14
9,1 %

Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 139 dan 155 taga yoki 111,5 foizga oshgan.

## Tumanlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 39 | Beruniy | 6 |
| Mo‘ynoq | 35 | Bo‘zotov | 6 |
| Qo‘ng‘irot | 9 | Xo‘jayli | 5 |
| Nukus | 8 | Amudaryo | 4 |
| Qonliko‘l | 8 | Taxtako‘pir | 2 |
| Qorao‘zak | 7 | Chimboy | 2 |
| Kegeyli | 7 | Shumanay | 2 |
| Taxiatosh | 7 | Ellikqal’a | 1 |
| To‘rtkol | 7 | | |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 26 | Xitoy Xalq Respublikasi | 23 |
| 12 | Rossiya Federatsiyasi | 19 |
| 9 | Qozog‘iston Respublikasi | 8 |
| 10 | Turkiya Respublikasi | 6 |
| 6 | Janubiy Koreya | 2 |
| 12 | Boshqa davlatlar | 22 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 80 tasi qo‘shma korxonalar, 75 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.


**Xitoy Xalq Respublikasi**


**Rossiya Federatsiyasi**


**Qozog‘iston Respublikasi**


**Turkiya Respublikasi**


**Janubiy Koreya**


**Boshqa davlatlar**

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 20 | Nukus sh. | 19 |
| 16 | Mo‘ynoq | 19 |
| 2 | Qo‘ng‘irot | 7 |
| 4 | Qonliko‘l | 4 |
| 6 | Nukus | 2 |
| 2 | Qorao‘zak | 5 |
| 2 | Kegeyli | 5 |
| 6 | Taxiatosh | 1 |
| 3 | To‘rtko‘l | 4 |
| 4 | Beruniy | 2 |
| - | Bo‘zotov | 6 |
| 2 | Xo‘jayli | 3 |
| 3 | Amudaryo | 1 |
| 1 | Taxtako‘pir | 1 |
| 1 | Chimboy | 1 |
| 2 | Shumanay | - |
| 1 | Ellikqal’a | - |

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma turidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.qrstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: (61) 222-78-37